



BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI AXLOQIY-ESTETIK TARBIYALASHNING HOZIRGI HOLATI

SADIKOV Baxtiyor Rustamovich

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi magistratura tinglovchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola bo‘ljak o‘qituvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalashning ilmiy-nazariy asoslariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda bo‘ljak o‘qituvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalashning hozirgi holati to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: axloq, estetik tarbiya, bo‘ljak o‘qituvchi, fuqarolik jamiyati, ta‘lim-tarbiya.

Erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida ma‘naviy-axloqiy jihatdan mukammal rivojlangan va demokratik rivojlangan davlatlar darajasida raqobatbardosh komil insonni tarbiyalash, ta‘lim va ma‘rifatni yuksaltirish, jahon andozalariga javob beradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlat ta‘lim siyosatining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Jamiyatimizning buguni, ertasi va indini uning ma‘naviy poydevori, kishilarning aql - zakovati va ma‘rifati bilan belgilanadi.

Yoshlarning ta‘lim-tarbiyasi – davlat ahamiyatiga molik birinchi darajali masala bo‘lib, uning hal etilishi uchun ulkan ishlar amalga oshirilgan.

Prezident Sh.Mirziyoyev “Yoshlarimiz bilan ko‘proq gaplashib, ularning qalbiga quloq solish, dardini, muammolarini bilish uchun amaliy ko‘mak berishimiz kerak”ligini uqtirib, “Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an‘analarimizga, ajdodlarimizning boy ma‘naviy merosiga tayanamiz. Yoshlarimiz qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘usini kamol toptirish, ularning sog‘lom turmush tarzi ruhida tarbiyalashga qaratilgan ishlarini kuchaytiramiz. Bu boradagi siyosatimiz yangi qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” gi Qonun asosida qat‘iy davom ettiriladi”, deb ta‘kidlagan [1].

Shuningdek, 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da ta‘lim va fan sohasini rivojlantiriga alohida ahamiyat berilib, “jismonan sog‘lom, ruhiy va



intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish ularning ijtimoiy faolligini oshirish" [2] ga qaratilgan amaliy ishlar bugun yoshlarimizni boshqacha fikrlashga, o'zlarining intellektual va ma'naviy – axloqiy salohiyatini yanada mustahkamlashda asosiy turtki bo'ldi.

Yurtboshimiz o'zining "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" nomli asarida "Dunyoning shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya yoshlarimizning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir" [3] degan fikrni bildirib o'tadi.

Hozirgi oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-estetik va ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning roli va ahamiyati ortib bormoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganidek, "axloqiy tarbiya, talaba-yoshlarimizning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhim"ligini [3] ta'kidlanib, uning usullari, metodikasi takomillashtirilmoqda, darsliklar qayta ko'rib chiqilmoqda va kitobga bo'lgan e'tibor yoshlar ongiga singdirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ham o'z asarlari va ma'ruzalarida mamlakatimizning tiklanishi va jamiyatimizning rivojlanishi hozirgi zamon kishisining ma'naviy barkamolligiga, yangi, sog'lom avlodga bog'liqligini ta'kidlaydi: "Sog'lom avlod - mamlakatimiz kelajagi" [4] hamda jamiyat kelajagida ma'naviy va axloqiy tarbiyaga muhim ahamiyat beradi: "Bironta jamiyat o'z kelajagini ma'naviy salohiyatni, insonlarning ongida ma'naviyat va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish va mustahkamlashsiz tasavvur qila olmaydi" [5]. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov yoshlar tarbiyasiga munosabatni qayta ko'rib chiqish kerak, deb hisoblaydi va "Ma'naviy yuksak insonlargina taraqqiyotni ta'minlaydi" [6], deb eslatadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

3. Mirziyoyev Sh.M. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz". – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b.



4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” Фармони. “Халқ сўзи” газетаси. 2017 йил, 28 (6722) -

5. Каримов И.А. Соғлом авлод – мамлакатимиз келажаги // Асарлар тўплами. – Т. 8. – 87- Б.99.

6. Каримов И.А. Фаннинг вазифаси – Ватан равнақиға хизмат қилиш: Бизнинг мақсад – эркин ва фаровон Ватан. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. - 340 б.

7. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий ривожланишининг асосий принциплари. - Тошкент: Ўзбекистон, 1995. – Б. 218-230.